

## QASHQADARYOLIK QO'RBOSHILAR QISMATI

**Shahboz Shuhrat o'g'li Shamsiddinov**

Qarshi davlat universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning 20-yillarida Qashqadaryo vohasida bo'lib o'tgan milliy-ozodlik kurashlariga boshchilik qilgan qo'rboshilarning vohadagi qarshilik harakatlariga boshchilik qilishi, olib borgan faoliyati va taqdiri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Qo'rboshi, "basmachi", sovetlar, qatag'on, to'qsoba, dodxoh, qarshilik harakati.

### ABSTRACT

The article analyzes the activities and fate of the soldiers who led the national-liberation struggle in the Kashkadarya oasis in the 20s of the 20th century.

**Keywords:** korboshi, "basmach", soviets, repression, toksoba, dodkhoh, resistance movement.

### KIRISH

1917-yilda Rossiya imperiyasi ag`darilgandan so`ng Turkiston Muxtoriyati tuzish uchun boshlangan harakatlar "Qo`qon fojeasi" bilan yakun topgach Farg`ona vodiysida milliy-ozodlik harkatlari boshlanib ketdi. Bu harakatalarga boshchilik qilganlar esa qo'rboshilar deb atala boshlandi. Bunday harakatlar keyinchalik mintaqaning boshqa hududlarida ham bosh ko`tardi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jumladan, O`rta Osiyodagi uch xonliklar davrida Buxoro amirligi davlati tarkibida bo`lgan Qashqadaryo vohasida ham 1920-yilda amirlik hokimiyati ag`darilib, 1921-yilda Buxoroning so`nggi amiri Sayid Olimxonning Afg`onistoniga qochib ketganidan so`ng boshlangan. Buxoro amirligi qulatilgandan so`ng dastlab g`arbiy Buxoroda, so`ngra sharqiy Buxoroda qarshilik harakatlari avj oladi. Amir Olimxonning o`zi ma`lum bir muddat bu qarshilik harakatlarga bosh bo`lish harakatida bo`lgan, biroq 1921-yilgi mag`lubiyatidan keyin oila a`zolari va yaqinlari bilan birlgilikda qo`shni Afg`oniston davlatiga qochib ketadi. Shunday bo`lsa-da amirlik hududlarida boshlanib ketgan qarshilik harakatlari to`xtab qolmagan. Jumladan, Qashqadaryo vohasida ham 1920-1922-yillarda qizil istibdodga qarshi yalov ko`targan qo'rboshilardan Tangri Berdi dodxoh, Eshqul dodxoh, Doniyorbek, Ibrohimbek, Avliyoqolibek,

Bozorbek, Mavlonbek, Mulla Abdurahmonbek, Mulla Juma Qoravulbegi, Gul oqsaqol (Koson tumani ijroqo`mi raisi), Eshqul Tursun (dehqon), Bahrom boyvachcha, Mulla Abduroziq, Mulla Abdusattor To`raboy, Mulla Muhammad To`raboy, Mulla Muhammad Ali, Ochilbek, Xoliqulibek, Bahrombek, Xo`jamqul, Qodir polvon va boshqalarning har qaysisi qo`l ostida 50 dan 400-500 tagacha yigit bo`lgan[1].

Mazkur qo`rboshilar va ularning qo`l ostidagi yigitlari vohada milliy-ozodlik kurashini olib borganlar. Biroq o`z davrida bularga nisbatan “bosmachilik” tamg`asi bosildi va xalqning ularga bo`lgan xayrixohligini o`zgartirishga harakat qilindi. Bugungi kun nazari bilan qaraganimizda, ular ko`pchiligi aslida yurt ozodligi uchun kurashlarga boshchilik qilgan qo`rboshilardan bo`lganligi ayon bo`lmoqda. O`z vaqtida va undan keyingi to mustaqillikkacha bo`lgan davrda ularning harakatlariga nisbatan ishlatilgan yot tushunchalardan tozalash va asl haqqatlarni yuzaga chiqarish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Qashqadaryo vohasida o`tgan asrning 20-yillarida bo`lib o`tgan qarshilik harakatlari va ularga boshchilik qilgan qo`rboshilarning faoliyatiga bag`ishlanagan sovet davrda bosmadan chiqqan davriy matbuot nashrlarida e`lon qilingan maqolalarga nazar tashlaydigan bo`lsak, ko`pchilik holatlarda ushbu harakatlar salbiy jihatdan yortilganligi va ularga nisbatan “bosmachilik” nomi talqin etilganligini guvohi bo`lamiz. Ushbu maqolalarning deyarli barchasida “bosmachi”larning oddiy xalqqa qilgan “qilmish”lari ularga qarshi xalq vakillarining “kurash”lari yortilgan.

“G`alaba” gazetasining 1987-yil 10-noyabr sonida “Otam haqida” deb nomlangan maqola bositgan. Maqola muallifi: Isomiddin Fattohov Quybishev nomli maktabda matematika fani o`qituvchisi sifatida faoliyat ko`rsatgan, shuningdek boshlang`ich partiya tashkiloti sekretari bo`lgan. Maqolada keltirilishicha, otasi Abdufattoh G`afforov bilimli kishi bo`lib, arab yozuvidagi kitoblarni qiyalmay o`qigan. Uning bobosi dong`i ketgan tabib o`tgan, tog`asi esa kitoblarni muqovalash ishlari bilan shug`ullangan.

Abdufattoh G`afforov 1920-yilda Buxoro Xalq Respublikasining birinchi qurultoyida kitoblik 3 ming kambag`al dehqon va hunarmandlarning vakili sifatida qatnashgan. Bu paytda u 19 yoshda bo`lgan. Ayni shu yildan uning jo`shqin komsomollik faoliyati boshlangan. Kitobda birinchi Komsomol yacheykasini tuzishda faollik ko`rsatib, tez orada a`zolari sonini 100 kishiga yetkazgan. Ushbu komsomollarning keyingi faoliyati yer islohoti o`tkazish, yangi maktablar ochish kabi ishlar bilan birgalikda “bosmachilar”ga qarshi kurashni ham qamrab olgan. Shu tariqa ularning “bosmachilar” bilan

to`qnashuvlari ham bo`lib o`tgan. Maqolada ularning aynan Tangri Berdi dodxoh yigitlari bilan kurshganligi qayd etilgan.

... 1925-yilni otam xo`rsinib xotirlardi. O`shanda Denovbola qishlog`ida bosmachilar bilan bo`lgan og`ir kurashda otam boshidan va o`ng qo`lidan yaralanib, uyga qaytganida xonadonda fojea yuz bergan ekan. Suiqasd uyihtirish maqsadida uyimizga kechasi bostirib kirgan Tangri Berdi dodxoh kallakesarlari otamning qayinsinglisi homilador Sharofat Pardayevani otib o`ldirib, xotini Salomat Pardayevani o`zлari bilan olib ketishibdi. Buvimni o`g`lini topib bermaganlikda ayblab, rosa kaltaklashibdi [2].

Shundan so`ng Abdufattoh G`afforov davlat idoralari bilan hamkorlikda Tangri Berdi dodxohni qo`lga tushirishdi qatnashganligi ham qayd etilgan. Shuningdek maqolada biz kitoblik komsomolchilar tomonidan kurash olib borilgan bosmachi galalarga boshchilik qilgan shaxslar nomlari orasida Tangriqul qo`rboshi, mulla Roziq, Ochilov, Xudoyberdi, Mamadali to`qsoba, Elbek, Ibrohimbek kabilarni ham ko`rishimiz mumkin.

“Avangard” gazetasining 1991-yil 30-mart sonida O`rol G`oyibnazarovning “Shahidlarga etamiz ta`zim” nomli maqolasi chop etilgan. Ushbu maqolada ham xalq va “bosmachilar” o`rtasidagi kurash jarayonlaridan lavhalar berib o`tilgan. Bu maqolada biz Yakkabog` tomonlarda qo`rboshilik qilgan Jabborbek ismini uchratamiz.

- 1922-yilning kuzi edi. Biz hali yosh edik. Mirza Odil xoinlik qildi, - eslaydi o`sha kunlarni faxriy chekist Yusuf ota Niyozov, - u 70 nafar chekistga bosmachilar to`dasiga qarshi o`q uzmaslikni buyurdi va o`zi qochib qoldi. Bosmachilar tomonidan birinchi galda G`ulom militsioner otib tashlandi. Beklik qo`rg`onida ikki jasur yakkabog`lik – Yakkabog` tuman inqilob qo`mitasi kotibi, firqa a`zosi mulla Shukur Xolmurod xoji o`g`li va chekist, o`ta qo`rqmas va mergan Ashur qo`r Bobomurod o`g`li qolgan edilar. Ular Mirzo Odilning xoinligini sezib qolishganlar. Pistirmadan turib ikkisi ikki joydan bosmachilarga hujumga qarshi o`tdilar. Ular o`ndan ortiq kallakesarlarni yer tishlatishdi. Biroq, 1,5-2 ming kishilik bosmachilar galasiga bas kelib bo`larmidi.

Qo`rboshining buyrug`iga binoan o`qi tugab, otishuvdan to`xtagan inqilob himoyachilari tiriklay qo`lga olindi. Shundan so`ng Jabborbek Yakkaboqqa bir hafta bek bo`ldi [3].

Ushbu maqolada nomi keltirilgan Jabborbek qo`rboshining faoliyati yoritilgan boshqa manbalarga nazar tashlaydigan bo`lsak, u bilan birgalikda o`z vaqtida Qashqadaryo okrug militsiya bo`limi boshlig`i Doniyorbeklar viloyatda ko`zga ko`ringan amaldorlar va

ruhoniylarga rahbarlik qilgan holda Shahrisabz va G`uzor uyezdlarida kuchli va jips guruhlar tuzishga muvaffaq bo`lganligi va ularning Afg`onistondagi muhojirlar bo`lmish Buxoroning sobiq amiri Sayid Olimxon qarorgohi bilan bog`langanligi keltirib o`tilgan [4].

Qo`rboshilar va mahalliy aholi bilan o`rtasida kurash kechmagan deya olmaymiz. Afsuski bunday holatlar ham yuz bergen. Bunga esa o`ziga xos holatlarni sabab qilib ko`rsatish mumkin. Qarshilik harakatlari boshlangan dastlabi kezlarda aholi qo`rboshilar yigitlarini qo`ldan kelgancha oziq-ovqat va kerakli anjomlar bilan ta`minlab turgan. Bunday holatda qarshilik harakatini bostirib bo`lmasligiga ko`zi yetgan sovetlar ushbu ta`minot manbalarini uzish harakatiga tushadi. Qarshilik harakati qatnashchilari “bosmachilar” sifatida talqin qilana boshlaydi va ular bilan aloqada bo`lganlar ham jazoga tortila boshlanadi. Bunday harakatlar, shubhasiz, ta`minotning kamayishiga sabab bo`ladi. Shunday holatda qo`rboshilar aholining boyroq qatlamiga o`ziga xos soliqlar joriy etadi. Soliq to`lashni xohlamagan va jazolanishdan qo`rqan ayrim shaxslar sovetlar bilan hamkorlik qilishga o`tib, qo`rboshilar faoliyati va manzillari haqida ularga ma`lumotlar bera boshlaydi. Ayni shu jihatlar aholining ayrim qatlamalari va qo`rboshilar o`rtasida ziddiyatarni keltirib chiqaradi. Bu holatlar esa keyinchalik ular o`rtasidagi to`qnashuvlarga olib keladi. Bundan yutgan tomon esa aniq. Ya`ni sovetlar bunday foyda ko`rgan tomon edi. Ular oldilariga qo`ygan maqsadlariga qay bir darajada erishadilar. Biroq davriy nashrlarda kelgan ayrim voqealar va sonlar boshqa manbalarga mos emas. Yuqorida keltirilgan to`nashuvda Jabborbek qo`rboshining qo`l ostidagi yigitlari soni 1,5-2 ming deb ko`rsatilgan. Bu haqiqatga unchalik yaqin emas. Boisi, ayni shu davrda Qashqadaryo vohasida harakat qilgan eng yirik qo`rboshilar sifatida e`tirof etiladigan Turdi to`qsobaning yigitlari soni 600 nafar deb ko`rsatilgan qolgan qo`rboshilarning qo`l ostida ham 50 dan 400-500 tagacha yigitlar bo`lganligi ko`rsatib o`tilgan. Bunday holatda Jabborbek qo`rboshi qo`l ostida ham shunga yaqin yigitlar bo`lganligi haqiqatga yaqinroqdir.

Shunday bo`lsa-da aholining ayrim o`ziga to`q qismlari qo`rboshilar va ularning yigitlarini kerakli narsalar ta`minlab turishga harakat qilishgan. Buni arxiv materiallarida ham uchratsih mumkin. 1926-yilda “bosmachilar” ga yordam bergenlikda ayblanib hibsga olingan Kasbi qishlog`ilik dehqon Mulla Aymurod Bobojonovga oid ishda u qo`rboshilardan Juma Qoravulbegi, Turdi to`qsoba, Gul oqsoqol, Bahrom boyvachchalarga ta`minot bilan yordam bergenlikda ayblangan. Jumladan, 1923-yilda Juma Qoravulbegiga bitta uch chiziqli mosin miltig`ini 300 ta o`q bilan bergen. Shu yili Juma Qoravulbegi va Mulla Jumalar Mulla Aymurod Bobojonovdan

200 ta qoramol terisini olib, uni Buxoroda sotib puliga bitta uch chiziqli mosin miltig`ini 100 ta o`q bilan sotib olganligi qayd etilgan.

Bobojonovning yordami faqat bu bilan kifoyalanmagan. Shunigdek, u mahalliy aholi orasidan qarshilik harakati saflari uchun targ`ibot orqali 20 nafar odam to`plab qo`rboshilar yigitlari safiga jo`natadi. Ular bilan esa 2 ta tuyada guruch, 3 tuyada arpa ham jo`natgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xo`sh milliy-ozodlik kurashchilariga bunday yordam ko`rsatgan Mulla Aymurod Bobojonovning o`zi kim edi? U Behbudiy uyezdi Kasbi qishlog`idan bo`lib, hibsga olingan 1926-yilda 43 yoshda bo`lgan. Millati o`zbek. Kasbi dehqon. Oilali, 3 nafar o`g`il farzandi bo`lgan. Qo`l ostidagi mulki esa 30 tanob yer, 1 ta uy, 20 ta qo`y, 1 ta buqa, 1 ta otdan iborat bo`lgan[5]. Ya`ni o`ziga to`q dehqon oilasidan bo`lgan. Keyinchalik bu qilgan ishlari uchun hibsga olinib, qamoqqa tashlangan.

Sovetlar hukmronligi davrida bosmadan chiqqan mahalliy matbuot nashrlarida Qashqadaryo vohasida qo`rboshilik harakati bilan tarixda qolgan yana bir shaxs, Turdi to`qsoba haqida ham maqola va ocherklar chop etilgan. Jumladan, “Qashqadaryo haqiqati” gazetasining 1957-yil 13-noyabr sonida “Mo`tabar qon” sarlavhali ocherk bosilgan. Ushbu ocherkda Turdi to`qsoba va Xilol qishloq ahlining to`qnashuvlari aks ettirilgan. Ocherkda keltirilishicha uzoq to`qnashuvlarda holdan toygan to`qsoba o`z yigitlari bilan Xilol qishlog`iga kelib qo`nadi. Qishloq oqsoqollari orqali odamlardan turli oziq-ovqat va boshqa narsalardan iborat soliq talab qiladi. Shunda qishloq yoshlaridan Damir va Sayfullalar qishloq ahlini “bosmachilar”ga qarshi birlashib kurashishga chaqiradi va qishloq ahlini inqilob qo`mitasining har bir qishloqda komsomol yoshlardan “bosmachilar”ga qarshi kurashuvchi guruppa tuzish haqidagi qarori bilan tanishtiradi. Natijada ular qishloqda “qizil tayoqchalar” deb nomlangan guruppa ham tuzishadi. Bu ishlar to`qsobaning qulog`iga yetib borgach, u tunda odamlari bilan kelib, bu ikala yoshni o`ldirishadi. Ocherkda esa ularning to`kilgan qoni mo`tabar qon deb tilga olinadi.

Ushbu ocherkda keltirilgan quyidagi jumlalar yuqorida bayon etilgan qo`rboshilar tomonidan aholiga solingan soliqlarni bir qadar eslatadi: “Xidir oqsoqol qishloq aholisini yig`ib, birovga ikki echki, birovga bir pud un, yana birovga bir arava beda soliq solmoqda. Zayni oqsoqol uni quvvatlab, “kimki bu buyruqni bajarmasa boshi tanasidan judo bo`ladi”, deb yig`ilganlarni qo`rqtimoqda. Hamma darg`azab, ammo itoatkor. Soliq Turdi To`qsoba uchun edi. Asli Kosonning arabxonasidan bo`lgan Buxoro amirining tuyachisi Turdi To`qsoba yemirilgan amirlik saltanatini qayta tiklamoqchi

bo`lganlar qatorida qo`lga quroq olib, begunoh aholini qon qaqshatib kelmoqda edi” [6].

Ocherkda diqqatni tortadigan jihatlardan biri bu – inqilob qo`mitasining har bir qishloqda Komsomol yoshidagilardan “bosmachilar”ga qarshi kurashuvchi guruuhlar tuzish haqidagi qaroridir. Bu guruhlarni tuzishdan maqsad aholining osyishtaligini saqlash deb o`qtiriladi. Kimdan saqlash? Bir joyda istiqomat qilayotgan xalqni shu xalqning boshqa bir bo`lagidan saqlash uchun! Bu guruhlarning tuzilishi esa boshqalar uchun kerak edi. Ya`ni sovetlar uchun. Ha, bir xalqni bir-biriga qo`yishni uddasidan chiqishdi. Bu maqsad yo`lida ko`proq yoshroq qatlidan foydalanishdi. Chunki bu qatlam qiziqqon. Ularni o`z yo`llarida yurdirish yoshi kattaroq qatlamga nisbatan osonroq. Ocherkda o`sha davrda bunday guruppalarni tuzilishida faol tashabbuskor bo`lgan Qarshi revkomi Sayidqo`l aka degan shaxs ham tilga olingan.

Poyon Ravshanovning “Qizil sultanat iskanjasida. Tajovuz” kitobida Turdi to`soba haqida quyidagilar bayon etilgan. Haqiqatdan ham Kosonning Arabxona qishlog`idan bo`lgan Turdi to`qsoba 1920-yilgacha amirlik xizmatida bo`lib kelgan taniqli kishilardan bo`lgan. Amirlik ag`darilib sovetlar hokimiyatga kelgandan so`ng, u ham qarshilik harakati rahbarlaridan biriga aylanadi. Bora-bora qo`l ostida 600 ga yaqin yigit yig`iladi va bu yigitlar bilan vohaning turli joylarida sovetlarga qarshilik ko`rsatishga harakat qilgan. Turdi to`qsoba 1922-1925-yillarda qarshilik harakatlarini faol amalga oshirdi. Aynan Turdi to`qsobaning halokati Qashqa vohasida 20-yillar boshlarida vujudga kelgan, sovet hokimiyatiga qarshi katta kuchga aylangan ozodlik harakati uchun qattiq yo`qotish, mag`lubiyatning ibtidosi edi.

Qashqadaryoda o`tgan asrning 20-yillarida bo`lib o`tgan milliy-ozodlik harakatlari 1926-yilga kelganda deyarli mag`lubiyatga uchradi. Bu paytga kelib vohada yirik qo`rboshilarning hammasi yoki taslim bo`lgan, yoki to`qnashuvlarda halok bo`lgan edi. Qo`rboshilari halok bo`lgan harakat a`zolari qarshilik harakatlarini davom ettirishgan, biroq boshliqsiz qolgan harakat mayda guruhlarga bo`linib ketgan. Bu holatda davom etgan qarshilik harakatlarini bostirish esa, oldingisiga nisbatan ancha osonroq kechgan.

Sovetlar milliy-ozodlik kurashlarini so`ndirishda turli xil yo`llarni qo`llashdi. Dastlab, ularga “bosmachi” nomini “muhrlash” orqali mahalliy xalqdan uzoqlashtirishga urinishdi. Keyin esa qo`rboshilar orasida mavqeyi yuqori bo`lganlarini turli yo`llar bilan obro`sizlantirishga harakat qilishdi. Oddiy xalq bilan o`rtasida nizo keltirib chiqarishga va bu orqali ularni xalqqa qarshi harakatda ayplashdi. Shunday voqealardan biri Tangri Berdi dodxoh bilan yuz bergen “G`ilon fojeasi”dir.



Yana “Qashqadaryo haqiqati” gazetasiga yuzlanamiz. Mazkur nashrning 1966-yil 28-avgustda bosilib chiqqan sonida “So`nmas jasorat” nomli maqola (muallifi: Qarshi davlat pedagogika institutining katta o`qituvchisi Bozor Samadov) chop etilgan. Ushbu maqola Shahrisabz shahridan 30 kilometr yuqorida tog` tepasida joylashgan G`ilon qishlog`ida vohada milliy-ozodlik harakatlari davom etayotgan davrda yuz bergan fojeaga bag`ishlangan. Maqolada keltirilishicha: “4 tomoni baland cho`qqilar bilan o`ralgan G`ilon qishlog`ida 1500 kishi istiqomat qilib, “Madaniyat” kolxozining markazi hisoblangan. G`alla, pilla, tamaki, kartoshka va chorva mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan bu qishloq, shuningdek 30 dan ortiq hunarmandchilik kasblari bilan ham shug`ullangan”.

Maqolada bir qancha nomlarni uchratish mumkin. Bu nomlar orasida biz shu davr bo`yicha yirik olimlarning yozgan ilmiy asarlarida milliy-ozodlik kurashiga boshchilik qilgan qo`rboshilarning nomlari bilan bir qatorda boshqa nomlarga ham duch kelamiz. Jumladan, G`ilon qishlog`iga bostirib kelgan “bosmachi”lar rahbarlari sifatida quyidagilarni ko`rishimiz mumkin: Jovuz qishloqli Roziq, samarqandlik Ochilov, yakkabog`lik Jabborbek va Bozorbek, chorshanbalik To`ra to`qsoba, Dodxo va Musurmonqul kabilar.

- 1921-yil avgust oyida jovuz qishloqli Roziq bosmachi o`zining qurollangan 25 kishisi bilan G`elonga bir kechali joy izlab keladi. Buni payqab qolgan qizil askarlar ularni qo`qqisdan qo`lga tushiradilar va Roziqni otadilar. 1922-yilning kuz faslida Samarqanddan oshib kelgan Ochilov (300 kishi bilan), yakkabog`lik Jabborbek va Bozorbek bosmachilar o`zlarini “xalq himoyachisi” deb ko`rsatib, qizil askarlarga qarshi kurashmoq uchun G`elonda birlashmoqchi bo`ladilar. Uch kunlik tunovda ular 50 dan ortiq qo`y va qoramolni so`yib yeganlar. Bosmachilarning bu yerdaligini eshitgan ko`ngilli otryad yetib keladi. O`rtada ancha jang bo`ladi, bardosh bera olmagan banditlar to`dasi qochadi [7].

Bundan ko`rinib turibdiki, G`ilon qishlog`iga bir vaqtning o`zida bir necha qo`rboshilar yig`ilgan. Aftidan ular yakka holda harakat qilishning samarasizligini tushunib yetgan holda birlashib harakatga o`tishni niyat qilishgan. Bu qo`rboshilar qo`l ostida turlicha adaddagi yigitlar bo`lib, agar ular birlashadigan bo`lsa, ularni mag`lub etish sovetlar uchun ancha qiyinlashardi. Shuning uchun ham ularning birlashishiga yo`l qo`yilmagan ko`rinadi. Bunda mahalliy aholining aksariyat qismi sovetlar bilan aloqada bo`lganligi ham qo`l kelgan. Bu voqealardan xabar topgan Tangri Berdi dodxoh, ehtimol, shu boisdan G`ilonga bosqin uyushtirgan bo`lsa kerak. Bu borada bosqinni oqlash niyatidan yiroqmiz. Chunki bosqin natijasida g`ilonlik begunohlar ham jabr ko`rgan ular ichida

ayollar va bolalarning ham bo`lganligi achinarli holat. Bu bosqinni bo`lishi kimgarga kerak bo`lganligi kundek ravshan.

Maqolada bosqin yuz berishidan oldin qo`rboshilar aholidan turli xil ko`rinishdagi soliq talab qilganligi bayon etilgan. ...Shundan keyin yana bir yirtqich paydo bo`ldi. Bu chorshanbalik To`ra to`qsoba edi. U G`elonga kelib, o`z yordamchilari Eshonqulga Anbar ismli, Atoulloga Gulsum ismli qizlarni tortiq qilishni talab etadi. Uning bu niyatidan xalq g`azablanadi va astoydil kurashga otlanadi. Qishloqda ko`ngilli guruppalar tuziladi. Misgar, duradgor va barcha hunarmandlar o`q-dori, quroq-aslaha yasashga kirishadilar. Bu ishlarga g`elonlik usta Rustam Darvishov, Abdukarim Abdurahimov, Yusup bobo Yoqubov va boshqa kishilar bosh bo`ladilar. Bosmachilar qishloq aholisidan 2 pud oltin, 3 pud choy, 3 pud nos, 40 ta to`n, 1000 juft ot nahali va 3 qiz berishni talab qiladilar. Buni so`rab kelgan 7 bosmachini g`elonliklar ushlab oladilar va Qizilemchakdagi harbiy gornizonga jo`natadilar. Bu voqeа 1924-yil may oyida yuz beradi.

Mazkur fojea Poyon Ravshanovning “Qizil sultanat iskanjasida. Tajovuz” kitobida quyidagicha talqin etilgan. Shu yili 22-sentabr kuni ertalab soat 5<sup>00</sup> da: Tangri Berdi dodxoh, Shayman to`qsoba, Mulla To`raboy va yana bir aniqlanmagan qo`rboshi, hammasi bo`lib 4 ta qo`rboshi, taxminan 100 yigit bilan G`ilon qishlog`iga g`arbiy tarafdan kirib kelgan. Ular qishloqni to`rt tomondan o`rab olgan. Dodxohni o`zi 15 yigit bilan qishloq ichiga kiradi va qishloqni obro`li bir necha kishilarini daraxtga bog`lab, otib tashlaydi. Yigitlariga qishloqni talashni buyuradi. 2 soat davom etgan talonchilikdan so`ng, qishloqqa to`rt tarafdan o`t qo`yiladi. Talonchilik va yong`in natijasida 238 kishi halok bo`lgan. Bular ichida yosh bolalar va ayollar ham bo`lgan.

Ushbu fojea haqida keyinchalik davriy matbuot nashrlarida chiqqan maqolalarda ham halok bo`lganlar soni berib ketilgan. Jumladan, “Qashqadaryo haqiqati” gazetasining 1975-yil 21-noyabr kuni chiqqan sonida Q. Rahimov muallifligidagi “Jasorat madhi”, deb nomlangan maqola ham bosilgan bo`lib, ushbu maqolada aynan Tangri Berdi dodxoh va uning yigitlari bilan G`ilonda yuz bergen fojea qisman yoritilgan. Maqolada qirg`in natijasida halok bo`lganlar soni ham berib ketilgan. “O`sha kuni kallakesarlar qo`lida 238 g`ilonlik halok bo`ldi”[8].

Tangri Berdi dodxohning bu qilmishini oqlab bo`lmaydi. Biroq bunday holatning ro`y berishi haqida sovetlarda aniq ma`lumotlar bo`lib, ular qishloqda qirg`in bo`layotganda yordam berishi imkoniyati bo`laturib, ataylab buni bilmaslikka olishgan ko`rinadi. Sababi oddiy. Tangri Berdi dodxohni xalq orasida obro`sini tushirish va uni yomonotliq qilish. Buning esa qo`rboshiga ruhiy ta`sir yuqori bo`lishi aniq edi. Xuddi shunday

bo`ldi ham. Mazkur voqeadan so`ng Tangri Berdi dodxohda ruhiy tushkunlik holati yuz beradi. Bir paytlar borib yurgan qishloqlariga ham boshini ko`tarib kira olmaydigan bo`lib qoldi. Bu es uning ruhan mag`lub bo`lishini tezlashtirdi.

O`z yurtini bosib olgan asl bosmachilarga qarshi kurashgan milliy-ozodlik harakati ishtirokchilari bo`lgan qarshilik harakati namoyondalari bilan bog`liq bunday holatlar, afsuski, achinarlidir. Ularni o`z maqsadlaridan og`ishiga va o`z yurtdoshlari bilan nizolarga borishiga sabab bo`lgan uchinchi tomon bo`lgani, ehtimoldan holi emas. Aynan ularning qilmishlari sababli bir hududda istiqomat qilib kelgan yurtdoshlar haqiqiy bosmachilarga qarshi kurashish o`rniga bir-birlari bilan nizolashishi ularning kuchini qirqilishiga va oxirida ma`g`lubiyatga uchrab qatag`on qilinishiga olib kelgan.

## XULOSA

Mustamlakchilik davrida qatag`onga uchragan yurtdoshlarimizning nomlarini aniqlash va ularning tarixda yurt va millat uchun qilgan xizmatlarini e`tirof etish bugungi kunda izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Qatag`on qurban ni bo`lgan ajdodlarimiz orasida turli xil jabbada faoliyat olib borganlar. Yuqorida nomlari keltirilgan qo`rboshilarining ham tarix zarvaraqlarida xoh yaxshi bo`lsin, xoh yomon o`z o`rni mavjud. Bizdan talab qilinadigani esa tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishdir. Mazkur maqola shu yo`ldagi kichik bir qadamlardan biri.

## REFERENCES

1. Ravshanov P. Qizil sultanat iskanjasida. Tajovuz. Uch jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2011. 17-b.
2. Fattoxov I. Otam haqida // G`alaba. – 1987. 10-noyabr. 2-b.
3. G`oyibnazarov O`. Shahidlarga etamiz ta`zim // Avangard. – 1991. 30-mart. 3-b.
4. QVDA. 83-jamg`arma, 1-ro`yxat, 12-ish, 64-b.
5. QVDA. 172-jamg`arma, 3-ro`yxat, 47-ish, 6-65-b.
6. Chori Xamro, Po`latov A, Nurov S. Mo`tabar qon. Ocherk // Qashqadaryo haqiqati. 1957. 13-noyabr. 3-b.
7. Samadov B. So`nmas jasorat. // Qashqadaryo haqiqati. 1966. 28-avgust. 2-b.
8. Rahimov Q. Jasorat madhi. // Qashqadaryo haqiqati. 1975. 21-noyabr. 3-b.